

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA RAMZ VA UNING OBRAZLASHUVI**Gulmurodova Dilshoda Qobil qizi****Navoiy Davlat Universiteti****O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti**<https://doi.org/10.5281/zenodo.22142918>

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi ramzlarning boy manbasi hisoblanib, u orqali axloqiy-estetik tushunchalar, insoniy qadriyatlar o'z ifodasini topadi. Ramzlar xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lib, maqol, matal, ertak, doston, afsona ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ularda insonlarda bor ezgulik, oqillik, rostgo'ylik, yovuzlik kabi sifatlarni namoyon etadi. Bu orqali xalq o'zini dunyoqarashini obraz va ramzlar orqali namoyon etadi. Ramziy timsollar xalqning badiiy-estetik ongi va xalq tafakkurini ifoda etishda ishlatilib folklor asarlarning jozibadorligi va ma'nodorligini oshirishda xizmat qiladi. Bundan tashqari adabiyotshunoslik sohasida xalq og'zaki ijodida ramz va timsollardan foydalanish orqali xalqning tarixi, madaniyati va qadriyatlarini ham ifodalab berishi mumkin.

Ramzlarning ijodiy asarlarda ishlatilishi o'ziga xos ruhiy-psixologik asosga ega. Bu borasida Goblid Alviella “Ramzlar migratsiyasi” asrida ham o'zining fikr va qarashlarini berib o'tgan. Uning fikriga ko'ra, ramzlar ifodalashning bir shakli bo'lib, asosiy maqsadi narsa predmet nusxasini olish emas, uning maqsadi shaklni ma'noga aylanishiga va shaklning shaklsizlik aylanishiga o'z hissasini qo'shishidir. Ba'zan ramz shakli o'zining individualigi, yaxlitligi bilan asarlarda o'ziga xos ma'no beradi, lekin ramz va majoz bir-biriga qorishib ketgan holatlar ham uchraydi. Ramz va majoz bir-biridan farq qilishini N.Shukurov, N.Hotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudovlar “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida tushuntirib bergan va ramz majozning bir turi sifatida ko'rsatilgan.

Xalq og'zaki ijodida ramzlardan foydalanish va ularni obrazlantirish uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, odamlar tosh davri paytida tabiat hodisalari haqida yetarli bilimga ega bo'lmagani uchun tabiatdagi yorug'lik va qorong'ulikni ezgulik va yozuvlik ramzi sifatida talqin etgan. Ya'ni, kunduz kun ular ov qilisha olgan, o'rmonlar ularga tanish bo'lgan, lekin tunda qorong'ulikda ular ov qilisha olmagan va o'zlarini xavfsiz his etishmagan. Shundan kelib chiqib, kunduz kun ular uchun ezgulik ramzi sifatida, qorong'ulik esa yozuvlik sifatida obrazlangan. Ular o'zlarining devorlarga chizgan kundalik turmush hayotida tabiatning bu kabi ramzlaridan foydalanib ularni obrazlarga aylantirishgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodidagi ramziy obrazlar mumtoz adabiyot va zamonaviy ijodga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Navoiy, Yaqiniy, Nishopiy kabi shoirlar ramziy tafakkurni yanada chuqurlashtirib, uni badiiy adabiyotning muhim tamoyiliga aylantirgan. Bu an'ana bugungi kunda ham o'z davomiyligini saqlab, zamonaviy o'zbek adabiyoti va madaniyatida yangicha talqin va ma'no kasb etmoqda.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, xalq og'zaki ijodida ramzlar xalqning tarixi, turmush tarzi va qadriyatini ifoda etgan. Bunga misol qilib, “Alpomish”, “Kuntug'mish” dostonlarida raqamlarning obrazlashuvi, uning turkiy xalqning turmush tarzida boy o'rnini ko'rsatib bergan. Bu asarlarda raqamlar mifologik tafakkur va ma'naviy qadriyatni obrazlashtirgan. Masalan, 3, 40 raqamlari ramziy ma'noda birdamlikni, ahillikni obrazlantirsa, 7 raqami xushxabar, xursandchilik ruhini o'zida mujassam etgan. Xalq og'zaki ijodida ranglarni, hayvonlarni ramziy timsollarda gavdalantirish ham ko'p kuzatiladigan holat. D.O'rinbaeva raqamlar, ranglar, hayvonot olami, o'simlik va daraxtlar obrazlashganda xalqning diniy e'tiqodi, qarashlari bilan bog'liqligini aniqlagan va turlarga ajratgan. Ya'ni oq rang poklik, halollik ramzi sifatida, qizil

rang jo'shqinlik, tajovuzkorlik sifatida, yashil va moviy ranglar esa tinchlik, osudalik, xayrixohlik ramzi sifatida xalq asarlarida ifodalanadi. Hayvonlar esa xalq og'zaki ijodida xalqning axloqiy-ijtimoiy qarashlari, kuch-qudrat, erkinlik va olijanoblik kabi tushunchalarni ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Alpomish" dostonida ot qahramonning ishonchli do'sti va kuch-qudrat ramzi bo'lgan. Badiiy adabiyot va folklorlarda esa qushlar vijdon, vaqt, taqdir, imon va inson qalbi bilan bog'laydigan ramz sifatida talqin etadi. Ertak va masallarda esa bo'ri ochko'zlik, tulki ayyorlik, quyon sodda va aqllilik va ayiq ahmoq, go'llikning ramzi sifatida ifodalanadi. Ramzlarning bu kabi obrazlashuvida Sh.Turdimov xalq qo'shiqlaridagi ramzlarni qushlar, hayvonlar, o'rin-joyning o'zak ramzlari sifatida ifodallagan. Xalq og'zaki ijodi va badiiy asarlarda ramzlar obraz ifoda etishi ramziy-majoziy usulning sintaksisi va badiiy ta'sirchanligini oshiruvchi muhim usulidir. Bundan tashqari asarlarda ramzlar o'z va ko'chma ma'noda birga qo'llanishi va konteksiga bog'liqligi bilan ham keng doirada qo'llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi ramzlar va ularning obrazlashuvi xalqning ma'naviy olami, falsafiy tafakkuri va badiiy-estetik dunyoqarashini aks ettiruvchi bebaho merosdir. Ramziy timsollarni o'rganish nafaqat folklorning badiiy xususiyatlarini, balki xalqning psixologiyasi, urf-odatlarini va milliy o'zligini ham teran anglash imkonini beradi. Ushbu merosni o'rganish va uni zamonaviy avlodga yetkazish har bir tadqiqotchining muhim vazifasidir, chunki ramzlar tilida bitilgan xalq hikmati asrlar osha o'z kuch-qudratini yo'qotmagan, aksincha, yangi davrda yangicha ma'no kasb etgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. – S.: 2006. – 356. b.
2. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki ijodi. — Toshkent: Fan, 2005.
3. Maxmudova J. M. Xalq og'zaki ijodida ramziy obrazlar// Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali// 127-132 b.
4. Mamadaliyeva Z. Qaqnus timsoli talqinlari. // Mumtoz adabiyotda qushlar obrazi. "Sharqyulduzi"jurnali// 2013. 6-soni.
5. Muhammadiyeva. M . BADIY ASARLARDA RAMZIY VA MAJOZIY OBRAZLARINING SHAKLLANISH TARIXI//O'ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR//472-476 b
6. Sarimsoqov B. O'zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988. – 216 b.
7. Qodirov I. Mifologik obrazlar talqini. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
8. Xalilova.D.A.O'zbekiston xalq og'zaki ijodi asosiy ramzlar tizimi//YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI//Volume 5, issue 3,552-555
9. Xalilova. D.A. O'zbek xalq og'zaki ijodida ramz va mifologemalar tizimi//ILM-FAN XABARNOMASI//Volume 12, Issue 1, fevral 2026. 2076-2080 b.
10. Xatamova.D.A. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA OBRAZ TERMINING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI// International Scientific- Methodological Electronic Journal// 2024, vol 10, No 5 (58), pp 195-208.